


YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–sentabrda Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 898,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 8,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YAHM	15 156,5	18 898,8	108,5
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 771,4	18 333,4	108,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	385,1	565,4	109,4
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 771,4	18 333,4	108,5
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 863,0	8 445,4	103,9
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 601,1	3 455,4	120,0
	sanoat	1 689,4	2 093,7	113,2

		<i>Mrd. so‘m</i>		<i>O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
	qurilish	911,7	1361,7	132,4
	Xizmatlar	5 307,3	6 432,6	108,9
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	805,3	999,0	109,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	840,8	1061,6	115,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 661,2	4 372,0	107,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 926,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 46,1 % ni, sanoat tarmog'i 11,4 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 35,1 % ni tashkil qildi.




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,5	97,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,5	3,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	46,5	46,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	17,6	18,8
	sanoat	11,4	11,4
	qurilish	6,2	7,4
	Xizmatlar	35,9	35,1
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,5	5,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,7	5,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	24,7	23,9




**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2020- yil





2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 46,1 %), sanoatda – 113,2 % (11,4 %), qurilishda – 132,4 % (7,4 %), xizmatlar sohasida – 108,9 % ni (35,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,6 % (5,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,5 % (5,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,2 % dan (23,9 %) iborat bo'ldi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,8 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 1,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 1,1 f.p.) va qurilish tarmog'i – 1,9 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda salbiy – 0,3 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda salbiy – 0,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. ga ko'paydi.




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 118,4 %, qurilishda – 112,8 % va xizmatlar sohasida – 111,3 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 75,4 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrida – 76,1 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: M.Xudayberganov
Tel.: (62) 227-78-65